

## BOSHLANGICH SINIF O'QISH VA ONA TILI DARSLARIDA "O'QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI ÒSTIRISH".

**Boqiyeva Nafisa Shaxriyorovna**

*Toshkent shahar Uchtepa tumani*

*287-maktabda boshlang'ich sinf òqituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada o'quvchilarning nutq madaniyatini òstirish, o'quvchini tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardor qilish, nutqiy muomalani tashkil etish, nutqiy muomalaning o'zaro ta'sir ko'rsatish va uning obrazi "ko'rish" tizimi bilan birga borish to'g'risida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *o'quvchilar, nutq, mazmun, mantiq, til, vosita, ifoda, madaniyat.*

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub islohotlar zahirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi.

Nutq madaniyati, nutq odobi — 1) og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o'rganuvchi bo'limi. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi. 1-ma'nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi ikki bos-qichni qamrab oladi: a) nutqning to'g'riligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning to'g'riligi muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Mas., aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan bi-rining

adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak Nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi.

Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutq madaniyatimizni kuzatib borishni yoshlikdan boshlang'ich sinfdan shakllantirishimiz kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini individual shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq rivojining tarbiyasi individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va o'quvchilar nutqining ravonligini rivojlantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqning o'sishini mustaqil tahlil qilish, o'zaro har tomonlama tavsifnomalar, o'qituvchining kuzatishlari asosida amalga oshadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida nutq muomalasi haqida, "Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?" mavzusida suhbat o'tkazish.

2. Nutqiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilingan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni yengish.

3. Nutqda pedagog uchun muomalaning hissiy juhatdan qulay bo'lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan taqqoslash.

4. Nutqiy muomalada o'z individual uslubiy pedagogik muomalaning tarkibiy qismlarini egallash sohasidagi ishlar.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda, o'quvchilar nutqining o'stirilishida pedagogik muomalaning juhatlari muhim rol o'ynaydi. Bu o'rinda, bir nechta bosqichlar ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi bosqich – bu o'quvchini tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardor qilishdir.

Ikkinchi bosqich – nutqiy muomala ob'ektining ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilishdir.

Uchinchi bosqich – nutqiy muomalani tashkil etish, yangi materialni bayon qilish yo'nalishida o'qituvchi o'quvchilarni bo'lajak muomalaga, yangi materialni tushuntirib berishga tayyorlaydi.

To'rtinchi bosqich - nutqiy muomalaning o'zaro ta'sir ko'rsatishi bo'lib, uning obrazi "ko'rish" tizimi bilan birga borish lozim.

O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin.
2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin.
3. Nutq aniq bo'lsin.
4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin.
5. Nutq tushunarli bo'lsin.
6. Nutq ifodali bo'lsin.
7. Nutq to'g'ri bo'lsin.

8. Nutq madaniyatli bo'lsin.

Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir.

Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari bo'yicha to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o'rgatadi. O'qituvchining mahorati shundaki, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Maktab va hayot. Ilmiy-metodik jurnal. Sonlari
2. Dilova N.G. (2021). O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 567-576 betlar.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. 2000 yil
4. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 February 2022 / Volume 3 Issue 2
5. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) 767